

KARIMOV Farxod Erkinovich,
O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi
Xalqaro munosabatlari va ijtimoiy fanlar
kafedrası mudiri, siyosiy fanlar doktori (Dsc)
email: farxodkarimov1987@gmail.com

MUSULMON DUNYOSIDA POKISTON VA HINDISTON MOJAROSI

ПАКИСТАНО- ИНДИЙСКИЙ КОНФЛИКТ В МУСУЛЬМАНСКОМ МИРЕ

PAKISTANI-INDIAN CONFLICT IN THE MUSLIM WORLD

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro munosabatlarning eng muammoli vaziyatlaridan biri bo'lgan Pokiston va Hindiston o'rtasidagi murosasiz ziddiyatlar tahlili keltirilgan. Shuningdek, Kashmir muammosining o'ziga xos xususiyatlari va istiqbollari, Hindiston va Pokiston o'rtasidagi qurolli mojarolar hamda yadroviy qurollanish poygasi muammolari tahlil qilingan. Bunda, ikki davlat o'rtasidagi ziddiyatlarning asl sabablari tarixiy va ivoq tahlil asosida ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Pokiston va Hindiston, Kashmir muammosi, qurolli mojarolar, yadroviy qurollanish poygasi

Аннотация: В данной статье представлен анализ непримиримых конфликтов между Пакистаном и Индией, которые являются одной из наиболее проблемных ситуаций международных отношений. Также анализируются особенности и перспективы проблемы Кашмира, вооруженного конфликта между Индией и Пакистаном, гонки ядерных вооружений. При этом была предпринята попытка раскрыть реальные причины конфликтов между двумя странами на основе исторического и событийного анализа.

Ключевые слова: Пакистан и Индия, проблема Кашмира, вооруженный конфликт, гонка ядерных вооружений.

Annotation: This article presents an analysis of the irreconcilable conflicts between Pakistan and India, which are one of the most problematic situations in international relations. The features and prospects of the Kashmir problem, the armed conflict between India and Pakistan, and the nuclear arms race are also analyzed. At the same time, an attempt was made to reveal the

real causes of conflicts between the two countries on the basis of historical and event analysis.

Key words: Pakistan and India, the Kashmir problem, armed conflict, nuclear arms race.

KIRISH

20-asr boshlari dunyoda mustamlakachi davlatlarning koloniyalariga mustaqillik berish asosida yangi davlatlar paydo bo'ldi. Mazkur davlatlar Amerika, Afrika va Osiyo mintaqalari siyosiy xaritasini belgilab berdi. Yangi davlatlarning paydo bo'lishi bilan ular o'rtasida hududiy muammolar va ziddiyatlar ham paydo bo'ldi. Zero, yangi shakllangan davlatlarning chegara hududlari aniq belgilab berilmagani ortida mintaqada uchinchi tomon aralashuvizis hal bo'lmaydigan mojarolarga zamin yaratib ketilgan edi. Bu bilan, ko'plab tarixchi va siyosatshunos olimlar qayd etganidek, sobiq mustamlakachi davlatlar bu hududlarda o'z ta'sirini saqlab qolish imkoniyatini yaratgani ko'rinib turibdi.

Aynan shunday muammoli holat 1947-yilda Janubiy Osiyoda paydo bo'lgan yangi Pokiston va Hindiston davlatlari o'rtasida hal qilinmagan hududlar va chegaralarda vujudga keldi. Deyarli 80 yildan beri yechim topilmayotgan Kashmir muammosi hamda musulmonlar va hindular o'rtasidagi etno-konfessional ziddiyatlar global ahamiyat kasb etib bormoqda. Mazkur muammolar nafaqat 2 tomon yoki mintaq, balki, butun dunyoda barqarorlikni ta'minlashda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammolarni o'rganish, ularning yechimiga qaratilgan siyosiy tadqiqotlar olib borish bugungi xalqaro munosabatlarning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib ushbu maqolada aynan mazkur muammoga bag'ishlangan tadqiqot natijalari aks ettirilgan.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu maqolada turli ijtimoiy-siyosiy muammolarni tahlil qilishda qo'llaniladigan ilmiy metodlardan va yondashuvlardan foydalanilgan. Jumladan, etnologiya, sotsiologiya, etnosiyosiy muammolarga oid so'ngi ilmiy ishlar va rasmiy ma'lumotlarning kontent tahlili amalga oshirilgan. Bunda, millatlararo, konfessiyalararo hamda davlatlararo ziddiyatlarni tasniflashda eng ko'p qo'llanilgan tayanch tushuncha hamda nazariy yondashuvlar umumlashtirilgan holda xususiy xulosalar shakllantirilgan. Mazkur xulosalar

hozirda janubiy Osiyoda Pokiston va Hindiston o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatning ivalent tahlili natijalariga ko'ra asoslangan.

Shuningdek, mazkur ziddiyatni o'rganish bo'yicha xorijiy tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilingan holda bu boradagi shaxsiy yondashuv asoslangan. Maqoladagi ilmiy xulosalar asosan tarixiy hamda ivalent tahlil asosida asoslangan. Ayrim holatlarda tadqiqot ob'ekti xususiyatlarini hisobga olgan holda konfliktologiya metodlaridan foydalanilgan.

ASOSIY QISM

Boburiylar imperyasining (1526-1858-yillar) Hindistondagi 300 yildan ortiq hukmronligi davrida bugungi Hindiston, Pokiston, Bangladesh va Afg'onistonning katta qismini o'z ichiga olgan keng hududda turli etnik va diniy guruhlar deyarli muammosiz yashab kelgan. Bu etnik va diniy guruhlar o'z qadriyatlarini va an'alarini tashqi bosim va ichki muammolarsiz amalga oshirib kelgan. Biroq, mustamlakachilik siyosati va bosqinlari bilan bu tartib va tizimda katta muammo ortaga chiqdi. Inglizlar XVIII asrdan boshlab asta sekin Hindistonni bosib olar ekan, o'z mustamlakachilik yo'lida u yoki bu etnik va diniy guruhlarini qo'llaydi va turli ichki nizolarni o'rta qo'yadi yoki buning uchun zamin yaratib ketadi.

Buning natijasi o'laroq, 1947-yilda Britaniya Hindistoni bo'linib, Hindiston va Pokiston mustaqillikka erishganidan beri Janubiy Osiyoning ikki davlati bir-biriga qarshi to'rt marta (1947, 1965, 1971, 1999-yillarda) jang qildi va ko'plab chegara mojarolarini boshdan kechirdi. 1971-yilgi Bangladesh muammosi tufayli paydo bo'lgan Hindiston-Pokiston urushidan tashqari, Hindiston va Pokiston o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita barcha urush va mojarolarning asosiy manbai Kashmir muammosi bo'ldi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar hali ham urush o'qida davom etmoqda. Bu ayniqsa, har ikki davlatning yadro qurollariga ega ekanligi bilan ular o'rtasidagi mojarolar har doim juda tarang va qaltis muhit yaratmoqda.

Kashmir muammosi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Britaniya katta yo'qotishlarga uchradi. Bu uning qo'l ostidagi mustamlaka davlatlarni tutub turishini qiyinlashtirdi. Ustiga ustak, Hindistonda milliy ozodlik harakatlari kuchayib borayotgandi. Bu harakatlar boshida hindlar orasida Mahatma Gandi, musulmonlar orasida Muhammad Ali Jinnah turardi. Britaniya Hindiston yarimorolidan

chiqib ketishi aniq bo'lganida uni dinga ko'ra ikkiga bo'lish orqali chekinishga qaror qiladi. 1947-yilgi Hindiston Mustaqilligi to'g'risidagi qonun Britaniya Hindistonini hindlar ko'p bo'lgan Hindiston va musulmonlar ko'p bo'lgan Pokistonga ajratdi. Bu qarorga ya'ni Hindistonni din asosda ikkiga bo'linishiga Gandi qarshi chiqqan bo'lsa, Jinnah qarorni qo'llab quvvatlaydi. Biroq, barcha muammolar shundan keyin boshlanadi.

Gap shundaki, Hindiston Britaniya tarkibida bo'lgan paytda feodal boshqaruvga ega (knyazlik) davlatlardan iborat edi va ularning soni 500 dan ortiq edi. Ularning barchasi Britaniyaga tobe edi va mustaqillik to'g'risidagi qonunda ularning taqdiri bo'yicha yakuniy hukm mavjud emasdi. Natijada, nazariy jihatdan mustaqil bo'lgan ushbu feodal davlatlar o'z xohishi bilan yo Hindistonga yoki Pokistonga qo'shilishi kerak edi. Shunday ham bo'ldi, hindlar ko'p yashaydigan joylar Hindistonga, musulmonlar ko'p yashaydigan joylar Pokistonga qo'shilishga rozi bo'ldi. Ammo, bu barcha feodal davlatlarda unchalik silliq kechmadi.

Qo'shilish jarayonida uchta istisno mavjud edi: hukmdorlari musulmonlar va aholisining aksariyati hindlar bo'lgan Haydarobod va Junagadh (Gujarat) birinchi navbatda alohida mustaqil davlat bo'lishni xohlashdi, ammo bu shtatlarning Hindistondagi ishtiroki unchalik muammoli emas edi. Shu bois, birinchisi Hindistonning kichik harbiy amaliyoti bilan; ikkinchisi referendum orqali Hindistonga qo'shildi. Boshqa tomondan, aholisining aksariyati musulmonlar va hukmron oilasi hindlar (sikxlar) bo'lgan Kashmir Hindiston va Pokiston o'rtasida 75 yildan beri hal etilmagan ziddiyatga aylandi va ko'rinishidan yaqin kelajakda hal bo'lishi qiyin muammo [1].

Kashmir Pokiston uchun ikki sababga ko'ra muhim. Birinchisi, aholisining 80% musulmonlar, ikkinchisi esa Kashmir va uning irmoqlaridan o'tuvchi Hind daryosi Pokiston gidroelektr stantsiyalari (GESlari)ning energiya ehtiyojlarini qondiradi. Hindiston esa bu hududni tarixan Hindistonning parchasi bo'lganini ta'kidlaydi va u yerlarni Pokiston nazorati ostida qoldirib, Pokistonning ustun mavqega ega bo'lishini istamaydi. Shu bilan birga, Kashmir Hindiston yoki Pokistonning bir qismi emas, balki mustaqil davlat bo'lishi kerakligini ta'kidlaydigan kashmirliklar ham bor.

Shuningdek, Kashmir Janubiy Osiyodagi geosiyosiy muhim nuqtada joylashgan bo'lib,

g'arb va janubda Pokiston va Hindiston joylashgan; Shimol va sharqda Afg'oniston, Tojikiston, Xitoy va Tibet bilan chegaradosh. 1947-yildan buyon Pokiston va Hindiston o'rtasida davom etayotgan to'qnashuvdan tashqari, Xitoyning bosimi va/yoki nazorati ostida Shinjon-Uyg'ur va Tibet avtonom rayonlarida davom etayotgan inqiroz va mojaro muhiti Kashmirning pozitsiyasini geostrategiyasini yanada keskinlashtirmoqda (1-rasmga qarang). Kashmirning geografik joylashuvi uning muammolar girdobida qolishiga hissa qo'shganga o'xshaydi. Ayniqsa, Kashmirni o'z ichiga olgan mintaqa davom etayotgan siyosiy va harbiy to'qnashuv va notinchlik tufayli noqonuniy faoliyatlar ya'ni qurol, giyohvand moddalar, odam savdosi, terror guruhlar va boshqalar kuchaydi. Mavjud muammoning davomi ziddiyatli muhitning davom etishini xohlaydigan global va mintaqaviy kuchlar uchun ayni muddoadir. Bu mojaroning boshi berk ko'chaga kirishiga sabab bo'lmoqda.

Hammasidan ham eng yomoni Kashmir muammosi dinlar orasidagi muammoga aylanishidir. Tadqiqotchi Hook va Spanier to'g'ri yozganidek, "Mustaqillik jarayonida Hindiston bilan boshlangan (hindlar va musulmonlar o'rtasidagi) fuqarolar urushi Pokistonda bugungi kungacha davom etadigan diniy nizolarning xabarchisi bo'ldi" [2]. To'g'rirog'i, Pokiston Kashmir muammosi tufayli dinni haddan tashqari siyosiy lashtirgan bo'lsa, keyinchalik Hindiston BJP partiyasi orqali hindulik dini va millatchiligiga asoslangan ultra-harakatni kuchaytirdi.

Bugungi kunda Kashmirning 43 foizi Hindiston, 37 foizi Pokiston va 20 foizi Xitoy tomonidan nazorat qilinadi. Mintaqaning janubiy qismi, xususan, Srinagar Hindistonning Jammu va Kashmir shtatiga aylandi, shimoliy qismi esa Pokiston nazoratiga o'tdi. Pokiston nazorati ostidagi hudud "Azadi Kashmir" deb ataladi. 1960 yilda Kashmirning sharqiy qismi Aksai Chin Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan bosib olinadi va hozirgacha uni nazorat qiladi. Shuningdek, 1963-yilda Pokiston Xitoyga bir qism Kashmir yerini berib yuboradi.

Hindiston va Pokiston o'rtasidagi qurolli mojarolar

Birinchi Kashmir urushi (1948-yil)

Dastlab *standstill* (qo'shilmaslik) maqomini saqlab qolishga harakat qilgan Kashmir hukmdori Maxaraja Hari Singh ichki nizo kuchayganda (musulmonlar Pokistonga qo'shilish talabi bilan

chiqadi) uni bostirish uchun Hindistondan yordam so'raydi. Hindiston qo'shilish shartmonasini imzolashi orqali unga yordam bera olishini ma'lum qiladi. Natijada, 1947-yilda Kashmir hukmdori Hindiston bilan shartnoma tuzib, o'z yerlarini Hindistonga qo'shilganligini e'lon qildi. Pokiston esa Kashmir mintaqasi aholisining asosiy qismini musulmonlar tashkil etishini ilgari surib, bu kelishuvni qabul qilmadi va o'z harbiylarini hududni bosib olish uchun kiritdi. Pokistonning argumenti Haydarobod va Junagadh musulmon hukmdorlarining mustaqil qarorlari qabul qilinmaganligi va xalqning xohishi inobatga olinib Hindistonga qo'shilganligi, shu bois, Kashmir hukmdori ham mustaqil emas, balki xalqning istagi bilan qaror qabul qilish kerakligini ilgari suradi. 1941-yilgi Britaniya aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Kashmirning o'rtacha 4 million aholisidan 3 million 100 ming musulmon (77%), 800 ming hind (20%), 65 ming sikk, 40 ming buddist va 4 ming boshqalardan iboratdir [3]. Bu holatda musulmonlarning istaklari ko'proq inobatga olinishi kerak edi. Biroq, inglizlarning qarorida feodal davlatlar (knyazliklar)ning qarorlari o'zlarida qolganligi va bunda dinga asoslanishi borasida aniq (majburiy) hukmlar mavjud emasdi. Shu bois, Maxaraja Singh Hindistonga qo'shilish qarorini e'lon qiladi, bu esa Pokistonning musulmonlarni himoya qilish vajlari bilan o'z harbiylarini Kashmirga kiritishiga sabab bo'ladi. Ushbu voqea 1948-yilda Hindiston va Pokiston o'rtasida Kashmir uchun urushga olib keldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti aralashib, Kashmirda referendum o'tkazish va xalq ovozigacha qo'yish sharti bilan o't ochishni to'xtatishga erishdi. Pokiston bu to'qnashuvda Kashmirning uchtan bir qismini egallashga muvaffaq bo'ldi, ammo uning katta qismi Hindistonda qoldi. Shu sababdan Hindiston hozirgacha o'zi egallab turgan Kashmir yerlarida referendum o'tkazishga ruhsat bermadi. Biroq, Kashmir muammosi Pokiston-Hindiston munosabatlarida qaynoq nuqta sifatida keyingi urushlarga sabab bo'ldi.

Ikkinchi Kashmir urushi (1965-yil)

Bu urush 1965-yilda Pokiston askarlarining Jabalitoriq operatsiyasi nomi ostida Hindiston tomonidan boshqariladigan Jammu va Kashmir yerlariga qo'shin yuborishi bilan boshlandi. Pokistonni ikkinchi bor Kashmirga qo'shin yuborishiga ikkita omil turtki bo'ladi: 1) 1962-yil oktyabr oyida Himoloy tog'lari balandligida

joylashgan va ikki davlatning bahsli chegara hududi deb da'vo qilingan Kashmirda (Aksai Chin hududida) Hindiston va Xitoy o'rtasidagi urushning bo'lib o'tishi va unda Xitoyning g'alabasi bilan tugashi, 2) Ushbu mag'lubiyatdan keyin Hindistonning mudofaa strategiyalarida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirishi va harbiy texnologiyalarni yangilash uchun g'arb ayniqsa, AQSh bilan yaqinlashishi, bunga qarshilik sifatida Pokistonning Xitoy bilan yaqinlashishi va Xitoy yordamida Kashmirda harbiy harakatlarni olib borishi edi.

Hindiston Pokistonning bu munosabatiga unga qarshi hujum uyushtirib javob berdi. Besh hafta davom etgan urushlar natijasida har ikki tomon ham bir-biridan sezilarli ustunlikka erisha olmadi, bundan tashqari, har ikki tomon ham katta talofatlarga uchradi, minglab odamlar halok bo'ldi. Qolaversa, bu urushda dunyo hamjamiyati Ikkinchi jahon urushidan keyin tanklar bilan urushgan eng katta jangga guvoh bo'ldi.

Urush oxiriga kelib ikkala tomon ham kichik g'alabalardan boshqa muvaffaqiyatga erisha olmadi va urush boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Urush Sovet Ittifoqi va AQShning aralashuvi bilan 1966-yil 10-yanvarda Toshkent deklaratsiyasining imzolaniishi bilan yakunlandi. O'shanda Hindiston bosh vaziri Lal Bahodur Shastri va Pokiston prezidenti Muhammad Ayubxon Toshkentga kelib o'zaro tinchlik kelishuviga imzo chekkandi.

Uchunchi urush (Bangladesh urushi, 1971-yil)

Garchi Kashmir bu urushga sababchi bo'lmasada, urushning tagida Hindiston va Pokistonning Kashmir masalasidagi kelishmovchiligi yotardi. 1947-yilda mustaqillikka erishgach, Bangladesh mintaqasi Sharqiy Pokiston nomi bilan Pokistonga qo'shildi, chunki uning aholisining aksariyati musulmonlar edi. Asl (ya'ni hozirgi) Pokiston G'arbiy Pokiston nomi bilan tanilgan, Bangladesh esa o'sha paytda Sharqiy Pokiston deb nomlanardi. Hindiston esa bu ikki Pokistonni ajratib turardi va aloqalarini uzib qo'ygandi.

Bundan tashqari, Sharqiy Pokiston (ya'ni Bangladesh) yerlari inglizlarning mustamlakachilik davrida e'tibordan chetda qolgan va juda qoloq yerlar edi. Shuning uchun, keyinchalik ham rivojlanmayotgan Sharqiy Pokiston (Bangladesh) Islomobod tomonidan ekspluatatsiya qilinayotganini da'vo qildi. Qolaversa, bu ikki mintaqaholisi musulmon bo'lsa-da, madaniyatlari bir-biridan juda farq qilgan. Urushdan oldin

Sharqiy Pokistonda siyosiy norozilik ortgan va madaniy millatchilik harakatlari kuchaygan edi. Shunga o'xshash muammolar 1971-yilda Sharqiy Pokistonda (Bangladeshda) katta qo'zg'olonga sabab bo'ldi. Qo'zg'olonni bostirmoqchi bo'lgan Pokiston mintaqada harbiy amaliyotlar boshladi va bu amaliyotlar natijasida 10 millionga yaqin Bangladeshlik Hindiston hududidan boshpana oldi.

Bangladeshliklarning boshpanasini bahona qilib, Hindiston Sharqiy Pokiston tomonida urushga kirdi. Urush ko'lamini o'zgartirib, Hindiston va Pokiston o'rtasidagi chegara to'qnashuviga aylandi. Pokiston harbiy samolyotlari Hindistonning g'arbiy hududlarini bombardimon qilganidan so'ng, mojaro ochiq urushga aylanib, Hindiston armiyasi Sharqiy Pokistonga kirib keldi. Ikki haftalik shiddatli janglardan so'ng Sharqiy Pokistondagi Pokiston kuchlari hind kuchlariga qarshi tura olmadi va 90 mingdan ortiq pokistonlik askar va aholi taslim bo'ldi.

1971-yil 15-dekabrda Pokiston qo'shinlari Hindiston kuchlariga taslim bo'lgach, Bangladesh tashkil topdi va shu kunni mustaqillik kuni deb rasman e'lon qildi. Bu urush Hindiston-Pokiston urushlarida eng ko'p qurbon bo'lgan urush hisoblanadi. Bu urush natijasida ikki davlat o'rtasidagi ziddiyat avjiga chiqdi va ikki davlat o'rtasida katta dushmanlik ruhiyati paydo bo'ldi. Bu o'z navbatida bir-biriga qarshi yadroviy qurollanishga sabab bo'ldi.

To'rtinchi urush (Uchunchi Kashmir urushi, 1999-yil)

1990-yillarda Kashmir mustaqillik tarafdori guruhlar va Hindiston xavfsizlik kuchlari o'rtasida kuchli to'qnashuvlarga guvoh bo'ldi. 1990-yillardan keyingi davrda mintaqada ko'plab Kashmir tarafdori guruhlar paydo bo'ldi. Aksariyati Pokistonparast bo'lgan bu guruhlar Hindiston xavfsizlik kuchlariga qarshi partizan urushini boshladi. Hindiston tomonining da'vosiga ko'ra, Pokistonda tayyorgarlikdan o'tayotgan bu guruhlarining qo'zg'atuvchisi Pokiston hukumatidir. Biroq, Pokiston hukumati bu da'voni rad etadi. Shu bilan birga, shuni unutmaslik kerakki, bu guruhlarining ko'payishi Afg'onistonning Sovet Ittifoqi tomonidan bosib olinishi tugaganidan keyingi yillarda sodir bo'ldi.

1989-yilda afg'on kurashi qisman tugagandan so'ng, Afg'oniston kurashini olib borgan "mujahitlar"ning ba'zi guruhlar Kashmirda borib, Kashmirdan ozodlik tarafdori kuchlari bilan birga

Hindiston xavfsizlik kuchlariga qarshi kurashdilar. 1990-yillardan keyin “shok va qo‘rqitish” taktikasi bilan Hindiston xavfsizlik kuchlariga katta zarar yetkazgan guruhlariga qarshi, Hindiston hujumlarga qarshi chora-tadbirlar nomi ostida o‘ta repressiv tizim o‘rnatib, mintaqadagi hukmronligini saqlab qoldi. Biroq, bu holat voqealarni yanada kuchaytirdi va 1999-yilda Pokiston va Hindiston o‘rtasida boshlangan Kargil urushigacha davom etadigan voqealar zanjirini yaratdi.

1999-yilda Kargil urushi boshlandi. May va iyul oylari orasida ikki davlat qo‘shinlari Kashmirning Kargil viloyatida jang qildi. 1999-yilda Pokiston Qurolli kuchlari Bosh shtab rahbari tomonidan Hindistonning 1984-yili Siachin mintaqasidagi amaliyotiga javob berish maqsadida rejalangan bu operatsiya ikki davlatni yadro urushi yoqasiga olib keldi. Murakkab ob-havo sharoiti tufayli Hindiston qish oylarida Kargil tepaliklaridagi harbiy inshootlarini tashlab ketardi. 1999-yilning qishida Hindiston xavfsizlik kuchlari mintaqani tark etgach, erta bahor oylarida Pokiston xavfsizlik kuchlari va kashmir guruhlariga Kargil tepaliklaridagi Hindiston harbiy obektlarini qo‘lga kiritadi. Bunga javoban Hindiston yoz oylariga kelib mintaqadagi harbiy ob’ektlarni qaytarib olish uchun G‘alaba operatsiyasi deb nomlangan yirik harbiy operatsiyani boshlaydi.

Hindiston havodan va quruqlikdan boshlangan keng ko‘lamli operatsiyalar bilan qisqa vaqt ichida ko‘plab nuqtalarni qaytarib oldi. Shundan so‘ng, operatsiya o‘zidan habarsiz holda amalga oshirilganini da’vo qilgan Pokiston Bosh vaziri Navoz Sharif, AQShning bosimi va vositachiligi bilan qo‘shinlarini olib chiqishni qabul qildi. Pokiston armiyasi qo‘shinlari olib chiqilgach, mintaqani tark etishni istamagan Kashmirlik mustaqillik tarafdori guruhlar mintaqada qolib, Hindiston askarlari bilan to‘qnashuvni davom ettirdi. Biroq, Hindistonning mintaqani Pokiston tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagan guruhlardan tortib olishiga ko‘p vaqt kerak bo‘lmadi. Bu holat keng ko‘lamli urushga aylanmasa-da, tomonlarni ehtimoliy yadro urushi yoqasidan qaytardi.

Hindiston va Pokiston o‘rtasida yadroviy qurollanish

Xaqaro munosabatlar sohasida ko‘zga ko‘ringan eng yetakchi olimlaridan biri Waltz davlatlarning yadroviy qurolga ega bo‘lishining ba’zi ontologik sabablari borligini ta’kidlaydi. Bular quyidagilari:

1. Buyuk davlatlar har doim boshqa raqib davlatlarning qurollarini hisobga oladilar va ko‘pincha ularning zamonaviy qurollariga taqlid qiladilar.

2. Bir davlat yadro quroliga ega bo‘lishni xohlashi mumkin, chunki u boshqa yirik davlatlar unga hujum qilganda ittifoqdoshlari javob qaytarmaydi, deb o‘ylaydi. Jumladan, Buyuk Britaniya va Frantsiya yadroviy qurolga ega bo‘lishni xohlashdi, chunki AQSh har qanday Sovet yadroviy hujumidan yadroviy himoya soyaboni bo‘lishni kafolatlay olmagandi.

3. Mamlakatlar o‘zlari va hozirgi yoki kelajakdagi dushmanlari o‘rtasidagi ziddiyatda odatiy ustunlikka ega bo‘lishlaridan qo‘rqib, yadroviy qurolga ega bo‘lishni xohladilar.

4. Ba’zi davlatlar yadroviy qurolga ega bo‘lish orqali an’anaviy qurollanish poygasini va iqtisodiy tiklanishni arzonroq va xavfsizroq qilishimiz mumkin deb o‘ylashadi.

5. Davlatlar o‘zlarining hujum siyosatlarini amalga oshirish uchun yadroviy qurolga ega bo‘lishga harakat qiladilar.

6. Mamlakatlar xalqaro mavqeini mustahkamlash uchun yadro quroliga ega bo‘lishni xohladilar [4].

Dastlab Hindiston va Pokiston o‘rtasida qurollanish poygasi, Hindistonning yadroviy qurol ishlab chiqarishi bilan yadroviy qurollanish poygasiga aylandi. Ikki davlat o‘rtasidagi urushlar yadro sohasida ham o‘z aksini topdi va ikki davlat o‘rtasida yadro urushi boshlandi. Hindiston mustaqillik yillarining boshida tinch maqsadlarda atom energetika sohasini rivojlantirdi. Javaharlal Neru bosh vazirligining oxirigacha 1965-yilgacha yadro quroliga qarshi edi va atom energetikasi mamlakat iqtisodi uchun arzon va barqaror energiya ta’minlovchi sifatida qaraldi. Biroq, 1962-yil Xitoy bilan urushda Hindistonning mag‘lub bo‘lishi va Xitoyning o‘sha yillarda yadro quroliga ega bo‘lishi Hindistonni harbiy strategiyasida tub burulish yasadi. Natijada, boyitilgan urandan yadro quroli ishlab chiqarishga kirishdi. 1974-yil 18-mayda Hindiston o‘zining birinchi raketasi Pokxran I (Kulib turgan Budda)ni koinotga uchirdi. Pokiston Hindistonni harbiy sohadagi ustun mavqeyga ega bo‘layotganidan xavotirlanib, o‘z yadro energetika sohasini rivojlantirdi. Pokiston atom energiyasi komissiyasi tomonidan 1980-yillarda Hindistonga qarshi yadroviy raketa Kirana Ini ixtiro qilindi.

1998-yilda Hindiston Pokistonni qo'rqitish uchun Pokxran-II deb nomlangan bir qator yadroviy raketa sinovlarini o'tkazdi. Bu yadroviy sinovlar G'arb davlatlari tomonidan jiddiy xavotir bilan qabul qilindi va ba'zi G'arb davlatlari Hindistonga qarshi sanksiyalar kiritdi.

Hindistonning Pokxran-II sinovidan yarim o'y otgach, Pokiston Hindistonga javoban Chagai-I raketa sinovini o'tkazdi. Ushbu raketa sinovidan ikki kun o'tib Pokiston yana Chagai-II yadroviy raketa sinovini o'tkazdi va bu ikki davlat o'rtasidagi yadroviy sohadagi so'nggi harakatlar edi.

Ikki davlat o'rtasidagi yadroviy qurollanish konflikt holatidagi ikki davlat uchun va dunyo hamjamiyati uchun juda xavotirli edi. Atom quvvatiga ega ikki davlatning bir-birlari o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mojaro ehtimoli yuqoriligi shartli ravishda kuchsiz tomon (Pokiston) o'ziga qarshi hujumda birinchi bo'lib kuchliroq vositasini qo'llashi tabiiy. Pokistonda ushbu yadro siyosati bilan o'z xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash masalasi hali ham amal qiladi. Pokistonning bunday yadroviy hujumi qarshisida Hindistonning Pokistonni butunlay mag'lub etuvchi va hatto tarix sahnasidan o'chirib tashlaydigan aksilyadro hujumi ham real siyosiy kutishdir [5].

Har ikki davlatning yadroviy doktrinasi solishtirilsa: Hindiston Janubiy Osiyodan tashqarida keng ko'lamli strategik yadro siyosatiga ega bo'lsa-da, Pokiston o'zining yadroviy doktrinasini Hindistonga qarshi hujum kontekstida belgilaydi. Hindiston har qanday an'anaviy to'qnashuv yoki hujumda yadro qurolidan birinchi bo'lib foydalanmaslikni ta'kidlasa, Pokiston o'z hududiga odatiy hujum bo'lsa ham, birinchi bo'lib yadrodan foydalanadi, degan doktrinaga ega. Hindiston yadroviy hujumlarda qarshi tomonni minimal darajada ushlab turishni istasa, Pokistonning bu borada siyosati yo'q. Hindistonning yadro qurollari fuqarolik irodasi bilan nazorat qilinsa, Pokistonning yadroviy qurollari amalda hukmron harbiy rahbarlar tomonidan nazorat qilinadi [6].

Pokistonning odatiy hujumga qarshi hech ikkilanmasdan Dehliga qarshi yadro qurolini qo'llashi haqidagi bayonoti, Hindistonning esa Pokistonning bunday harakatiga javob tariqasida uni yeryuzidan yo'q qilib yuborish haqidagi fikrlari mintaqa barqarorligi uchun katta tashvish uyg'otmoqda. 2004-yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Janubiy Osiyoning kontinental qismida

o'zaro yadroviy urush sodir bo'lgan taqdirda, yadroviy portlash paytida kamida 100 million odam halok bo'ladi va yuz minglab odamlar bilvosita zaharlanish yoki mayib bo'lish orqali halok bo'ladi [7].

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, Hindistonning diniy ko'rinishda bo'linishi bilan paydo bo'lgan chegaraviy muammolar, keyinchalik harbiy mojarolarga va diniy urushlarga aylanib ketdi. Ustiga ustak, Hindiston va Pokistonning yadro quroliga ega bo'lishi mintaqada xavfsizlik masalasini har tomonlama ortirdi. Albatta, yadro quroliga ega bo'lish orqali har ikki davlat bir-birini tiyib turishga erishgan bo'lsa-da, ular orasidagi nifoq va nizoning asl sababi Kashmir muammosi hal bo'lgani yoq. Bu holatda Kashmir nafaqat ikki davlat uchun, balki Janubiy Osiyo mintaqasi uchun "o'choq" vazifasini bajarmoqda. Bu ziddiyat murakkablashib ketishini oldini olish Hindiston va Pokiston rahbarlarining irodasi va istaklariga bog'liqdir.

ADABIYOTLAR:

1. Victoria Schofield, Kashmir in Conflict: India, Pakistan and the Unending War, I.B. Tauris, New York, 2003, p. 3-5.
2. Hook S. W. and Spanier J. American Foreign Policy Since World War II, CQ Press; 19th edition 2013, p.333.
3. Mangrio Nagma, A Historical and Political Perspective of Kashmir Issue // The Dialogue, Vol. 7, Issue 3, 2012, pp. 255-264.
4. Waltz K. The spread of nuclear weapons: More may be better. Adelphi Papers, Number 171, 1981, http://polsci.colorado.edu/sites/default/files/10B_Waltz.pdf
5. Kanwal G. Pakistan's Nuclear threshold and India's Options, 2014, p. 4. http://observerindia.com/cms/export/orfon-line/modules/analysis/attachments/A355_1199862929995.pdf
6. Badrulalam M. India and Pakistan's Nuclear Doctrines: A Comparative Analysis, April 11, 2012, <https://www.sspconline.org/opinion-analysis/india-and-pakistans-nuclear-doctrines-comparative-analysis-wed-04112012-1200>
7. Crompton S. W. Pakistan, 2nd ed. New York: Chelsea House Publishers, 2007, p. 94.